
CHYeK MAHALLASIDA “BESH TASHABBUS OLIMPIADASI” G’OLIBLARIGA SPORT MAYDONI QURIB BERILMOQDA

Ma’lumki, 2022 yilda Respublikamiz bo’ylab «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida ommaviy sport musobaqalari o’tkazildi. To’qqiz sport turini o’z ichiga qamrab olgan mazkur ommaviy musobaqalarda toshloqlik sportchi yoshlar ham faol ishtirok etib g’oliblikni qo’lga kiritgan.

«Besh tashabbus olimpiadasi»ning ikkinchi mavsumida Chek MFYdagi yosh sportchi Jumagul Abdujabborova sportning Stol tennis turi bo’yicha Respublika bosqichida 1-o’rinni egallagan. G’olibga o’z mahallasida sport maydonchasi qurish uchun sertifikat topshirilgan.

Musobaqaning yana bir ahamiyatli jihati, unda g’olib bo’lgan ishtirokchilarning mahallalariga 3 turdagi sport maydonchalarini qurib berish belgilangan. Ayni kunlarda tumandagi Chek MFYda sportchi yoshlar uchun sport maydonchasini qurish ishlari jadal olib borilmoqda. Tez kunlarda ushbu sport maydonchasi mahallada istiqomat qilayotgan aholi va yoshlar uchun doimiy badantarbiya va sog’lomlashtirish mashqlari bilan shug’ullanish imkoniyatini yaratadi.

2023-07-18 17:11:07